
QO'SHTEPA TUMANIDAGI USTA HUNARMANDLAR FAOLIYATI BILAN TANISHILDI

Qo'shtepa tumani Sarmozor mahallasidagi metallardan yasalgan badiiy buyumlarga bo'rtma usulda ishlov berish – kandakorlik bilan shug'ullanuvchi usta hunarmand Akramxon Yunusovni ko'pchilik yaxshi taniydi. U misdan oftoba, patnis, choy idish, ko'za, qumg'on, samovar kabi bejirim mahsulotlar yasaydi.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov ustaning xonadonida bo'lib, u yasagan mahsulotlar bilan tanishdi. Hunarmand ustaxona, o'quv markazi, turistlar uchun mo'ljazgina mehmonxona tashkil etayotganini bildirdi.

Shu mahallada yashovchi O'ktamxon Hamroxojayev ot uchun anjomlar tayyorlash bilan shug'ullanadi. Uning qo'l mehnati asosidagi mahsulotlari Qozog'istonda ham xaridorgir. Bugungi kunda shu mahalladagi 20 ga yaqin xonadon ham tadbirkordan buyurtma olib, anjomlarning turli qismlarini tayyorlashni yo'lga qo'ygan. Oilalarning o'rtacha daromadi 6-8 mln. so'mni tashkil etadi.

Viloyat rahbari uning xonadonida bo'lib, ish jarayonini ko'zdan kechirdi. Tadbirkorning faoliyatini yuqori baholab, tarmoqni kengaytirish, ish o'rinlarini ko'paytirish borasida ko'rsatmalar berildi.



















2024-09-18 08:16:06